



**Inson huquqlari bo'yicha
O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi
va
Toshkent davlat yuridik universiteti
o'rtasidagi o'zaro hamkorlik to'g'risida**

MEMORANDUM

Toshkent – 2026



Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi
va Toshkent davlat yuridik universiteti o'rtasidagi o'zaro hamkorlik to'g'risida

MEMORANDUM

Toshkent shahri

2026-yil 21-avgust

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi va Toshkent davlat yuridik universiteti (keyingi o'rinlarda Tomonlar deb yuritiladi) yuqori manfaatdorlikni e'tirof etgan holda o'zaro hamkorlik aloqalarini o'rnatish va anglashuvga erishish maqsadida quyidagilar haqida kelishib oldilar:

1-modda

Ushbu Memorandumning maqsadi Tomonlar o'rtasida yuqori sifatli hamkorlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan o'zaro manfaatli harakatlarni amalga oshirish va Tomonlarga yuklangan vazifalarni samarali bajarish uchun huquqiy asos yaratishdan iborat.

2-modda

Tomonlar o'z vakolatlari doirasida quyidagi asosiy yo'nalishlarda hamkorlik qilishga kelishib oldilar:

talabalarining nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirish maqsadida dual ta'lim amaliyotini bosqichma-bosqich joriy etish (asosan 2–3-bosqich va bitiruvchi bosqich talabalari uchun), amaliyot jarayonida ularga tajribali mutaxassis-mentorlar biriktirib, individual o'quv-amaliy reja asosida ishlash;

inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi normativ-huquqiy bazani tizimli va har tomonlama tahlil qilish, shu jumladan, milliy qonunchilikni inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish hamda takomillashtirish bo'yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish;

inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning milliy mexanizmlarini rivojlantirish muammolarini tadqiq etish bo'yicha qo'shma ilmiy tadqiqotlar o'tkazish;

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini inson huquqlari nuqtai nazaridan ilmiy ekspertizadan o'tkazish jarayoniga Milliy markaz xodimlari hamda Universitet professor-o'qituvchilarini keng jalb etish;

inson huquqlari sohasidagi xalqaro shartnomalar normalarini va ijobiy xorijiy tajribani qiyosiy tahlil qilish, ularni milliy qonunchilikka implementatsiya va transformatsiya qilish bo'yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqish;

Tomonlarning faoliyati uchun zarur ilmiy va amaliy metodik materiallarni, shu jumladan, inson huquqlari bo'yicha ta'lim va ma'rifatga oid o'quv-uslubiy qo'llanmalarni birgalikda tayyorlash;

inson huquqlarining dolzarb masalalari bo'yicha fundamental, ilmiy-amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borish, tadqiqot natijalari hamda nashr etilgan materiallarni muhokama qilish, ular bo'yicha taqriz va xulosalar tayyorlash;

turli forumlar (konferensiyalar, seminarlar, o'zaro manfaatli masalalar bo'yicha davra suhbatlari) tashkil qilish va o'tkazish;

tahliliy hisobot, umumlashtirish, statistik va boshqa ma'lumotlar bilan muntazam almashish, shu jumladan, inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnoma organlariga taqdim etiladigan milliy ma'ruzalarni tayyorlashda hamkorlik qilish, Tomonlarning axborot-resurs markazlari manbalaridan foydalanish;

Tomonlar o'rtasida ijobiy ish tajribalarini almashish, shu jumladan o'zaro amaliyot va maslahatlashuvlarni amalga oshirish;

Tomonlarning mavjud ilmiy jurnallarida maqolalar chop etish imkoniyatlarini yaratish; davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining inson huquqlari sohasidagi malakasini oshirish, qo'shma o'quv seminarlari, malaka oshirish kurslari va treninglarni tashkil etish va o'tkazish;

o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish hamda ilmiy-tadqiqot ishlariga Tomonlarning mutaxassislarini faol jalb etish.

3-modda

Memorandumda belgilangan qoidalarini amalga oshirishda Tomonlar quyidagilarga e'tibor qaratadilar:

qo'shma dasturlarni va rejalarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirish;

qo'shma rejalaridan tashqari tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish, davlat dasturlarini amalga oshirishga qaratilgan loyihalarni tayyorlash;

qo'shma ishchi va ekspert kengashlarini (guruhlarini) tuzish.

Tomonlar ushbu Memorandum qoidalarini amalga oshirish uchun o'zaro kelishuv asosida muvofiqlashtiruvchi kengashlar va boshqa maslahat organlarini tuzishlari mumkin.

Tomonlar o'zaro kelishgan holda manfaatli hamkorlikning boshqa shakllarini ham qo'llashlari mumkin.

4-modda

Har bir Tomon ushbu Memorandumni amalga oshirish jarayonida, shuningdek, uning amal qilish muddati tugaganidan keyin boshqa Tomondan olingan yoki berilgan hujjatlar, axborotlar va boshqa ma'lumotlarning maxfiyligini saqlash choralarini ko'rishlari shart.

Hujjatlar, axborotlar yoki boshqa ma'lumotlar bir Tomondan boshqa Tomonning avvaldan yozma roziligi olinmasdan oshkor etishi yoki uchinchi shaxslarga berishi mumkin emas.

5-modda

Tomonlarning o'zaro kelishuviga ko'ra bayonnoma asosida Hamkorlik to'g'risidagi Memorandumga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishlari mumkin hamda kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar Memorandumning ajralmas qismi hisoblanadi.

6-modda

Mazkur Memorandumni amalga oshirish va asosiy faoliyat yo'nalishlarini belgilash maqsadida Tomonlar o'z mas'ul vakillarini tayinlaydilar.

7-modda

Tomonlar tadqiqotchilar va mutaxassislarning samarali ilmiy izlanishlarni amalga oshirishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadilar. Bunda Milliy markaz xodimlari, mustaqil izlanuvchilari va tayanch doktorantlarining dissertatsiya ishi Universitet huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi tegishli ilmiy kengashlarga (shu jumladan, dastlabki ekspertiza, ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminarga) taqdim etilganda, mazkur dissertatsiya ishi majlis kun tartibiga navbatsiz, ustuvor va to'g'ridan-to'g'ri asosda muhokama qo'yiladi.

8-modda

Ushbu Memorandum Tomonlar imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi va besh yil davomida amal qiladi.

Tomonlardan biri Memorandumning amal qilish muddati tugashidan kamida uch oy oldin boshqa Tomonga, uning amal qilishini tugatish haqida yozma xabar yubormagan taqdirda, Memorandumning amal qilish muddati keyingi besh yillik davrga uzaytiriladi.

9-modda

Mazkur Memorandumni qo'llash yoki talqin qilish natijasida yuzaga keladigan har qanday nizolar yoki tushunmovchiliklar Tomonlar o'rtasida o'zaro maslahatlashuvlar va muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

10-modda

Memorandum Toshkent shahrida 2026-yil 21-avgust kuni davlat tilida, ikki nusxada tuzildi va nusxalar bir xil yuridik kuchga ega.

Inson huquqlari bo'yicha
O'zbekiston Respublikasi
Milliy markazi direktori

Toshkent davlat yuridik
universiteti rektori

Akmal Saidov

B.Xodjayev